



BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA IQTISODIYOTDA AXBOROT KOMPLEKSLARI VA TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHNING AMALIY AHAMIYATLARI (OTM MISOLIDA)

Muqimova Zulxumor Ziyataliyevna

Farg'ona davlat universiteti "Axborot texnologiyalari" kafedrası
o'qituvchisi

ARTICLE INFO

Received: 08th August 2023

Accepted: 17th August 2023

Online: 18th August 2023

KEY WORDS

Iqtisodiy ta'lim, innovatsion texnologiyalar, innovatsiya, iqtisodchi mutaxassis, axborot kommunikatsion texnologiyalar, noana'naviy ta'lim, ta'lim texnologiyasi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashda iqtisodiy ta'limda innovatsion va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish masalalarining huquqiy – me'yoriy asoslari, mutaxassislar tayyorlash mexanizmini takomillashtirish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashda iqtisodiy fanlarni o'qitishning dolzarb muammolari, o'qitishda innovatsion va axborot texnologiyalardan foydalanishning sifat va samaradorligini ta'sinlash, iqtisodiy ta'limda noa'naviy usullar orqali tashkil etish masalalari o'rganildi.

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng o'z rivojlanish yo'lini tanlab rivojlanib bormoqda. Bu yo'l demokratik huquqiy davlat, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyati qurishga yo'naltirilgan keng ko'lamli islohotlar yo'lidir. Axborot inqilobi va axborotlashgan jamiyatning shakllanishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda bilimlarning rolini tubdan o'zgartirib yubordi. Zamonaviy sharoitlarda asosiy iqtisodiy faoliyat turi bo'lib, axborotlarni ishlab chiqish va iqtisodiyotni samarali amal qilishi uchun undan foydalanish hisoblanadi.

Bunda asosiy ishlab chiqarish omili bo'lib bilimlar hisoblanadi va bu bilimlar ta'lim tizimi orqali yetkazib beriladi. Zamonaviy o'quv-tarbiyaviy jarayoni asosida ta'lim oluvchi shaxsini barkamol rivojlantirish konsepsiyasi yotadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevralda "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonda *axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimi IT-texnologiyalar rivojlanishining tezkor sur'atlarini hisobga olmayapti, shuningdek, ta'lim berishning ilg'or uslublarini joriy etish uchun xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalari bilan samarali muloqotni tashkil qilish imkonini bermayotganligi* muammo sifatida ta'kidlangan.

ADABIYOTLAR SHARHI




Iqtisodiy ta'limda innovatsion va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish masalalari hususida Respublika va xorij iqtisodchi, pedagog hamda axborot kommunikatsion texnologiyalar sohalarida faoliyat olib borayotgan bir qator olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida uchratish mumkin. Xususan, akademik S.G'ulomov, B.Begalov, D.Tojiboeva, M.Hakimova, N.Fayzullaeva, I.Mamajonov, S. Xasanov, J. Yo'ldoshev, B.Safarov, G.Jukov, P.Matrosov, S.Kaplan, P.I.Pidkasistogo kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida innovatsion va axborot texnologiyalar masalalari yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ma'lumki, talabani shaxs, mutaxassis, fuqaro sifatida shakllantirish oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Talaba mustaqil fikrlashga, izlanishga, fan, texnika, madaniyat va jamiyatdagi fundamental va hayotiy amaliy muhim muammolarni hal etish jarayonidagi muloqotga tayyor bo'lishi kerak. Bunday talab zamonaviy mehnat bozori uchun raqobatbardosh bitiruvchilarni tayyorlashdagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifa hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda ta'lim siyosati va ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlarni zaruratini belgilab beruvchi jahon rivojlanishidagi quyidagi umumiy tendensiyalarni e'tiborga olishi lozim:

- jamiyat rivojlanishi sur'atlarining tezlashuvi;
- axborotlashgan jamiyatga o'tish, global muammolarning vujudga kelishi va o'sishi;
- malakasiz va past malakali mehnat sohasining qisqarishi, bandlik ohasida chuqur tuzilmaviy o'zgarishlar;
- jamiyatning iqtisodiy rivojlanishida inson kapitali rolining oshib borishi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng ko'lamda joriy qilish quyidagilarni beradi [4]:



NATIJALAR

O'quv dasturi doirasida iqtisodiy fanlarni o'qitish o'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan, texnik vositalar, tarqatma materiallar va ko'rgazma qurollardan foydalanishni ko'zda tutadi. Ma'ruza mashg'ulotlarini olib borishda muammoli, mualliflik, binar, vizual kabi interaktiv shakllardan foydalanish ko'zda tutiladi. Seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda hamkorlikda o'qish (koop-koop), insert, klaster, T-sxema kabi o'qitish usullaridan foydalanish tavsiya etiladi [6].



Ilg'or pedagogik texnologiyalar quyidagi o'qitishning interaktiv usullaridan foydalanishni ko'zda tutadi: ma'ruza-disputlar, seminar-disputlar, ishbilarmonlik o'yinlari, iqtisodiy debatlar, keys-stadylarni yechish.

Ushbu interaktiv usullar ta'lim oluvchilarning ijodiy faolligini rivojlantiradi, o'rganilayotgan muammolar va masalalarni chuqurroq o'rganishga undaydi va shu orqali ularni faol bilish faoliyatiga jalb qiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Jamiyatning zamonaviy axborot texnologiyalarini egallagan yuqori malakali mutahassislarga bo'lgan ehtiyoji ta'lim siyosatining yetakchi omiliga aylanib bormoqda. O'qituvchining faoliyati uning axborotlardan xabardorligi va axborotlardan samarali foydalanish qobiliyatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lmoqda.

Demak, *birinchidan*, Zamonaviy mutaxassis axborot oqimlarida erkin yo'nalish olishi uchun kompyuterlar, telekommunikatsiya va axborotning boshqa vositalari yordamida axborotlarni olishni, qayta ishlashni va ulardan foydalanishni bilishi lozim.

Ikkinchidan, Mutaxassisning zarur bo'lgan axborot madaniyat darajasini ta'minlash, faqatgina bitta o'quv fanining maqsadi bo'lib qolmasligi lozim.

Uchinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlariga tatbiq etish lozim va bu holat o'qituvchilarning ma'lum bir kasbiy tayyorgarligini, axborot texnologiyalarining imkoniyati bilan tanishganligini, ushbu imkoniyatlardan o'zining ilmiy va amaliy faoliyatida foydalana olishini talab qiladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz/docs/3564970>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/4800657>
3. S.G'ulomov, B.Begalov. Informatika va axborot texnologiyalari. T.: "Fan", 2010 yil.
4. D. Tojiboeva "Iqtisodiy pedagogika" T. "Fan va texnologiyalar" 2018 yil.
5. M. Hakimova, D. Fayzullaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'UM. T.: Iqtisodiyot., 2016.,
6. D. Fayzullaeva, I. Mamajonov. Kasbiy ta'lim uslubi. O'qituvchining nutq madaniyati. O'UM, T. Iqtisodiyot., 2017., 28-bet.
7. S. Xasanov, J. Yo'ldoshev. Pedagogik texnologiyalar. T. Iqtisodiyot – moliya. 2019.
8. J. Safarov. Iqtisodiy ta'limda innovatsion va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2016 yil.